

CHINGIZ AYTMATOV ASARLARIDA MILLIY QADRIYAT TUSHUNCHASINING YETAKCHI XUSUSIYATI HAQIDA

Axmedova Dildora

*Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahar 39-o`rta umumta`lim maktabi
Oliy toifali ona tili va adabiyoti fani o`qituvchisi*

Аннотация

Mazkur maqolada Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” asari haqidagi insoniy qarashlar haqida hamda milliy urf-odatlariga bo`lgan mehr-oqibat, hurmat tushunchalari haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so`zlar: “Asrga tatigulik kun” asari, Nayman ona, Bo`ronli Edigey, ma`naviyat tushunchasi, milliy urf-odatlar, milliy o`zlik.

Ma`naviyat inson qalbidagi ezgu fazilatlar jamlanmasi ekan, milliy ma`naviyat o`zlikni anglashdan, tarixiy ildizlarni teran anglashdan boshlanadi. Bugungi davr ma`naviyati Sharqda G`arblashuv jarayoni, axborot texnologiyalari asri, va bir qator globalshuv jarayoni milliy o`zlik, milliy urf-odat tamoyillarini chetlab o`tmoqda. Shu jihatdan bugungi inson shaxsida qalban sovuqlik, e`tiborsizlik, sovuqqonlik kabi tuyg`ular asosiy o`ringa chiqmoqda. Milliy tarixiy o`zlikni anglashni qaror toptirish, ayniqsa bugungi yosh avlod tarbiyasiga daxldor ekanligini his qilish bugungi kun pedagoglarining oldida turgan muhim vazifadir. Amaldagi 9-sinf adabiyot darsligida Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romanidan parcha keltirilgan. Adibning bu romani 1980-yilda yozilgan. Asar chop etilishi bilan butun kitobxonlar tafakkuri va ruhiyatini larzaga keltirgan. Chunki unda odamning insoniy qiyofasini belgilaydigan asosiy ko`rsatkichlar: o`zlikni anglash, o`zgani tushunish, tarixiy ildizlarni bilish, undan faxrlanish singari tushunchalar ekanligi va bulardan ayrilish, mohiyatiga ko`ra, odamiylik qiyofasini yo`qotish ekani ko`rsatilgandi. Kitobda odam degan yaratilgan azizligi, uning tarixiy ildizlaridan, tilidan elidan, g`ururidan mahrum qilish joniga qasd etishdan ham dahshatli jinoyat ekani yovqur Nayman onaning tengsiz fojiasi tasviri asnosida aks ettirilgan. Chingiz Aytmatov Bo`ronli Edigey taqdiri misolida siyosatdan tamomila chetda turuvchi, bunday muammolar hal qilinadigan joylardan minglab chaqirim yiroqda umr kechiruvchi kamtargina odam ham aslida siyosatning ta`siridan xoli bo`lolmasligini juda ishonarli aks ettirgan. Edigey kechagi kunni unutmagan, bobolar amal qilgan yuksak udumlar asosida yashashga o`zida kuch topa oladigan chin insondir. Ma`lumotli bo`lsa-da ezgu insoniy tuyg`ulardan mahrum, odamning ko`nglini his etmaydigan, bobolarining udumlarini mensimaydigan Sobitjon manqurtning zamonaviy va xavfli nusxasi ekanligi asarda juda ta`sirli ko`rsatilgn. Bu

roman odamning odamligini, ta`minlab turadigan, asosiy qadriyatlar haqida dars bilan bitilgan o`lmas asardir.

O`quvchilar ongida asarni o`rganish jarayonida milliy urf odatlar, tarixiy ildizlarni bilish milliy o`zlikni anglash kabi jihatlarni o`rgatib va o`rnatib borish muhim masala hisoblanadi. Tarixiy ildizlardan ozuqa olmagan, milliy o`zligini anglamagan yosh avlod kelajagi ta`min etilmagan, hissiz, qalbsiz robotdan farqi yo`qligini asar miqyosida tushuncha shakllantirish lozim. Modomiki, birinchi prezidentimiz ta`kidlaganlaridek: "Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q". Shuning barobarida ma`naviyat o`zlikni anglashning eng muhim vositasidir. Milliy urf-odat va an`analari ruhida tarbiya topgan yosh avlod ongini turli yot g`oyalar bilan zabt etib bo`lmaydi.

Adabiyotlar:

1. Ch.Aytmatov, "Oq kema" Toshkent-2017
2. A .Rafiyev, N.G`ulomova Ona tili va adbiyot, Toshkent 2015
3. Adabiyot darsligi: 7-sinf uchun darslik-majmua.4-nashri Q.Yo`ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, T;"Sharq", 2017.